

## **Maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili nutqini oshirish.**

**G.Majidova JDPI o'qituvchisi**

**S. Tojiboyeva JDPI talabasi**

**Abstrakt:** Hozirgi kunda dunyodagi barcha insonlar o'z ona tilidan tashqari boshqa xorijiy tillarni o'rganishga harakat qilmoqdalar. Yangi tilni o'rganish juda katta e'tiborni talab qiladi. Buning uchun xorijiy tillarni maktabgacha ta'limdan boshlash yaxshi samara beradi. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalarida xorijiy til ya'ni ingliz tilini o'rgatish bo'yicha keng ko'lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada chet tillarini xususan, ingliz tilini bolalikni ilk yoshida o'qitish bo'yicha turli o'yinlar orqali til ko'nikmalarini oson o'zlashtirishi yuzasidan fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:***xorijiy til, o'rta yoshda til o'rganish, o'yinlar, ingliz tilidagi o'yinlar*

### ***Kirish***

Bog'cha yoshidagi bolalarda o'yin bolaning eng sevimli mashg'uloti bo'lganligi sababli bola atrofidagi hamma narsani o'yin orqali kashf etadi. Agar ingliz tilini ham o'yinlar orqali tushuntirib bera olsak, boladagi tilga bo'lgan xoxishni yaxshi tarafga o'zgartirgan bo'lamiz. Turli xildagi bolalarni nafaqat jismoniy balki ruhiy jihatdan ham shakllantiradi. Hozirgi kunda barcha davlatlar singari O'zbekistonda ham xorijiy tillarni jumladan, ingliz tilini o'rgatishga kata ahamiyat qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalarida "Ilk qadam" dasturi bo'yicha ingliz tili soatlari haftada 2 kunga qo'yilgani ham buning yaqqol isbotini ko'rsatadi. O'yin bolada o'ziga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi. Bog'cha bolalari aynan o'yin orqali ta'lim oladilar. O'yin orqali ta'limga erishish uchun bolada avvalo ko'rish va eshitish sezgilarini kuchaytirish kerak. Ta'limiy o'yinlarning turlari juda kop. Masalan : raqsga tushish, vidiolar tomosha qilish, o'yin o'ynash, qo'l mehnati.

***Xorijiy tillarni necha yoshdan o'rganishi kerak?***

Dunyo olimlari:” 10 yoshgacha bola chet tillarini oson o’zlashtiradi”-degan fikrni bildirishgan. Bu davrda bola tillarni tushunib emas balki mexanik tarzda o’rganadi. Shuning uchun bola xorijiy tillarni oson talafuz qiladi.

### ***Bolaning xorijiy tillarni o’rganishga tayyorgarligi***

Bolalarning rivojlanish bosqichlari bir biridan farq qiladi. Psixologlarning fikricha bolani erta yoshdan gapirishga majbur qilish ko’p hollarda kutilgan natija bermaydi. Bog’cha yoshidagi bolalarga xorijiy tillarni o’rgatish uchun,ularning qiziquvchanligini inobatga olish kerak. Qo’shimcha qilib aytganda bolalar uzoq muddat diqqatlarini aynan bir narsaga qarata olmasliklarini ta’kidlash zarur. Ko’p hollarda ota-onalar farzandlarini psixologik va fiziologik tayyorgarligini bilmasdan unga turli fanlarni o’rgatishga harakat qilishadi. Lekin bola buni xoxlamasligi ham mumkin. Bunday ko’ngilsiz holatlarni oldini olish uchun bolaning aynan nimaga qiziqishi borligini bilish zarur.

### ***Xorijiy tillarni o’rganishda o’yinning ahamiyati***

Har bir bolaning ichki dunyosida qiziquvchanlik birinchi o’rinda turadi. O’yin bolaning asosiy va sevimli mashg’uloti hisoblanadi. O’yin orqali bolada ta’limga bolgan qiziqishni oshirish mumkin. Masalan: she’r aytish, raqsga tushish va shu orqali bolaga ta’lim o’rgatilsa, yetarlicha samara beradi.

### ***Ta’limiy faoliyatlarning turlari***

Bolalar harakatlar orqali o’rganishadi. Agar ingliz tilini harakatlar orqali amalga oshirsak,biz kutgan natijani beradi. Bolada ingliz tili nutqini oshirish uchun, o’z ona tilida muloqotni kamaytirish va urg’uni ingliz tiliga berish kerak. Bunda bizga ta’limiy faoliyat turlari yordam beradi. Bular :

“Playing with blogs or legos”-“blok va lego vositalari bilan o’ynash”

“Dressing” “turli ertak kiyimlarini kiyish”

“sing a song” “qo’shiq kuylash”

kabi faoliyat turlaridan foydalanishkerak.

1. Playing with blocks or legos- bolalarga shakllar ranglar va raqamlar haqida tushuncha berishda uni o'zlashtirishda asosiy maqsad qilingan

2. Dressing- bu faoliyat turida bolalarga ertak qahramonlarini tanishtirish mumkin.

3. Sing a song – bolalarning sevimli mashg'ulotlaridan biri. Bolalar yoshlikdan qoshiq kulashni yoqtiradilar. Bunda bolalarning faolligi oshadi.

### ***Xulosa***

Bolaning kelajakda qanday o'qishi, kamol topishi maktabgacha ta'lim muassasasiga bog'liq. Biz asosiy e'tiborimizni maktabgacha ta'lim muassasasiga qaratadigan bo'lsak xorijiy tillarni o'rgatishdagi maqsadimizga to'laqonli erishamiz deb o'ylayman. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "farzandlarmiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishkari shart." Izlangan ilmiy xulosalarim shuni ko'rsatadiki: bolalar axborotning 70 % ini 6 yoshgacha bo'lgan davrda olishi isbotlangan. Demak, bolalarning ilk yoshida o'rgangan bilimi ajdodlarimiz aytkanlaridek "toshga bitilgan naqsh" ekan.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. "Ilk qadam" davlat dasturi
2. M.D.Bahromovna. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga chet tilini o'rgatishda o'yinlar. 2020.
3. L. Yusupov. Bolalarni ilk yoshida xorijiy tillarni o'rgatishdagi muammo va yechimlar. 2020.